

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
TA‘LIM SIFATI NAZORATI BO‘LIMI**

“TASDIQLANDI”
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti o‘quv ishlari bo‘yicha
prorektori Z. I. Alimov
“22” 04 2026 y.



**O‘QUV VA ILMIY JARAYONLARIDA GENERATIV SUN‘IY
INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI TARTIBGA
SOLISH TO‘G‘RISIDAGI
YO‘RIQNOMA**

Toshkent – 2026

1-bob. Umumiy qoidalar va konseptual asoslar

1.1. Maqsad: Mazkur Yo‘riqnomada TDSHuda akademik halollik (academic integrity) madaniyatini asrash, talabalarda kognitiv mustaqillikni shakllantirish va Generativ Sun‘iy Intellekt (keyingi o‘rinlarda – GSI) vositalaridan (ChatGPT, Claude, Gemini, Midjourney va b.) mas‘uliyatli foydalanishni huquqiy va etik jihatdan tartibga soladi.

1.2. Asosiy tamoyil (Inson markazlashgan yondashuv): GSI – bu o‘quv jarayonidagi kognitiv assistent bo‘lib, u hech qanday holatda talabani mustaqil tahlili, ijodiy tafakkuri va tadqiqot sub‘yektligini o‘rnini bosa olmaydi. GSI tomonidan yaratilgan har qanday natijaning haqqoniyligi va etik jihatlari uchun faqat talaba javobgardir.

2-bob. Foydalanishning ruxsat etilgan darajalari

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida har bir topshiriq uchun GSI‘dan foydalanishning **uchta** rejimi joriy etiladi:

- 1. Yashil rejim (Erkin foydalanish):** G‘oyalar generatsiyasi (brainstorming), matnning umumiy loyahasini tuzish, uslubiy tahrir, bibliografik ko‘rsatkichlarni formatlash va texnik kod yozishda cheklovsiz qo‘llaniladi.
- 2. Sariq rejim (Cheklangan foydalanish):** GSI faqat ma‘lumotlarni saralash va xomaki tahlil bosqichida ishlatiladi. Masalan, o‘qituvchi tomonidan belgilangan qismlarda (masalan, ma‘lumot yig‘ish bosqichida) foydalaniladi. Topshiriqning “intellektual o‘zagi – xulosalar, qiyosiy tahlil va mualliflik pozitsiyasi talaba tomonidan mustaqil yaratilishi shart.
- 3. Qizil rejim (To‘liq taqiq):** Yozma imtihonlar, nazorat ishlari, original tarjima topshiriqlari va birinchi manbalar bilan ishlash jarayonida GSI‘dan foydalanish qat‘iy taqiqlanadi va “akademik firibgarlik” deb baholanadi.

3-bob. Akademik halollik va deklaratsiya majburiyatlari

3.1. Majburiy deklaratsiya: Talaba topshiriq oxirida GSI‘dan foydalanganlik darajasini quyidagi shaklida ilova qilishi shart:

- **Ishlatilgan vosita:** [Masalan: ChatGPT-4, Gemini ai]
- **Foydalanish maqsadi:** [Masalan: Strukturani shakllantirish]
- **Promptlar arxivi:** [Ishlatilgan asosiy so‘rovlar matni]

1-bob. Umumiy qoidalar va konseptual asoslar

1.1. Maqsad: Mazkur Yo'riqnomada TDSH Uda akademik halollik (academic integrity) madaniyatini asrash, talabalarda kognitiv mustaqillikni shakllantirish va Generativ Sun'iy Intellekt (keyingi o'rinlarda – GSI) vositalaridan (ChatGPT, Claude, Gemini, Midjourney va b.) mas'uliyatli foydalanishni huquqiy va etik jihatdan tartibga soladi.

1.2. Asosiy tamoyil (Inson markazlashgan yondashuv): GSI – bu o'quv jarayonidagi kognitiv assistent bo'lib, u hech qanday holatda talabaning mustaqil tahlili, ijodiy tafakkuri va tadqiqot sub'yektligini o'rnini bosa olmaydi. GSI tomonidan yaratilgan har qanday natijaning haqqoniyligi va etik jihatlari uchun faqat talaba javobgardir.

2-bob. Foydalanishning ruxsat etilgan darajalari

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida har bir topshiriq uchun GSI'dan foydalanishning **uchta** rejimi joriy etiladi:

- 1. Yashil rejim (Erkin foydalanish):** G'oyalar generatsiyasi (brainstorming), matnning umumiy loyihasini tuzish, uslubiy tahrir, bibliografik ko'rsatkichlarni formatlash va texnik kod yozishda cheklovsiz qo'llaniladi.
- 2. Sariq rejim (Cheklangan foydalanish):** GSI faqat ma'lumotlarni saralash va xomaki tahlil bosqichida ishlatiladi. Masalan, o'qituvchi tomonidan belgilangan qismlarda (masalan, ma'lumot yig'ish bosqichida) foydalaniladi. Topshiriqning "intellektual o'zagi – xulosalar, qiyosiy tahlil va mualliflik pozitsiyasi talaba tomonidan mustaqil yaratilishi shart.
- 3. Qizil rejim (To'liq taqiq):** Yozma imtihonlar, nazorat ishlari, original tarjima topshiriqlari va birinchi manbalar bilan ishlash jarayonida GSI'dan foydalanish qat'iy taqiqlanadi va "akademik firibgarlik" deb baholanadi.

3-bob. Akademik halollik va deklaratsiya majburiyatlari

3.1. Majburiy deklaratsiya: Talaba topshiriq oxirida GSI'dan foydalanganlik darajasini quyidagi shaklida ilova qilishi shart:

- **Ishlatilgan vosita:** [Masalan: ChatGPT-4, Gemini ai]
- **Foydalanish maqsadi:** [Masalan: Strukturani shakllantirish]
- **Promptlar arxivi:** [Ishlatilgan asosiy so'rovlar matni]

Masalan: Manba [GSI nomi, masalan: ChatGPT-4 So'rov (Prompt) mazmuni: [Qisqacha mazmun].

3.2. Iqtibos keltirish standarti: GSI tomonidan yaratilgan har qanday parcha (matn, jadval, kod) uchun APA/MLA xalqaro standartlari asosida havola berilishi majburiydir. Havola berilmagan GSI matni plagiatning yangi shakli – “algoritmik plagiat” sifatida baholash uchun asos yaratadi.

3.3. Faktlarni tekshirish: GSI tomonidan taqdim etilgan manbalar va iqtiboslarning mavjudligini tekshirish talabning majburiyatidir. "GSI xato qildi" degan vaj akademik mas'uliyatdan ozod etmaydi.

4-bob. Universitetda bajariladigan tadqiqot yo'nalishi uchun maxsus reglament

4.1. G'arb markazlashuvining oldini olish: GSI modellari asosan ingliz tilidagi va G'arb manbalari asosida o'qitilgani sababli, Osiyo va Afrika xalqlari tarixi, diniy qadriyatlari va ijtimoiy normalari haqida eski, noto'g'ri, biryoqlama yoki stereotipik (tarafkash) xulosalar berilishini inobatga olgan holda tadqiqotlarda obyektivlikni ta'minlashga, qiyosiy metodologiyadan foydalanishga erishish maqsad qilingan.

4.2 Filologik tahlil va tarjima: Badiiy asarlar, mumtoz matnlar (arab, fors, turkiy, xitoy va b.) hamda qo'lyozmalarni tarjima qilishda GSI'dan foydalanish faqat “lug'at-yordamchi” sifatida ruxsat etiladi. GSI tomonidan tayyorlangan tayyor tarjimani manbasini ko'rsatmasdan va matn ustida qayta ishlamasdan taqdim etish ilmiy professionallik etikasiga zid deb hisoblanadi.

4.3. Manbashunoslik mas'uliyati: Tarixiy faktlarni talqin qilishda GSI xulosalari birlamchi manbalar (arxiv hujjatlari, arxeologik ma'lumotlar) bilan “kross-checking” (o'zaro qiyoslov) qilinishi shart.

4.4. Akademik mas'uliyat: Talaba GSI bergan xulosani Sharqshunoslikning fundamental manbalari (original matnlar, qo'lyozmalar) orqali etik va ilmiy filterdan o'tkazishi shart. GSI tomonidan berilgan etikaga zid yoki kamsituvchi ma'lumotni ilmiy ishga kiritish “akademik mas'uliyatsizlik” hisoblanadi.

5-bob. Huquqbuzarliklar va intizomiy javobgarlik

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida quyidagi sanksiyalar tizimi o'rnatiladi:

- **Birinchi darajali qoidabuzarlik (Bilmasdan yoki birinchi marta):** Topshiriq bekor qilinadi, baho "0" ballga tushiriladi va talaba "Akademik etika" kursiga majburiy yo'naltiriladi.
- **Ikkinchi darajali qoidabuzarlik (Tizimli ravishda yashirish):** Talaba tegishli fandan akademik qarzdor deb e'lon qilinadi, universitetning "Axloq komissiyasi"da ko'rib chiqiladi.
- **Uchinchi darajali qoidabuzarlik (Yirik ilmiy ishlarda suiste'mollik qilish):** Bitiruv malakaviy ishi yoki dissertatsiyada GSI dan yashirin foydalanish aniqlansa, foydalanish darajasi bo'yicha alohida izoh talab qilinadi, ekspertlar xulosasiga qarab jazolash yoki jazolamaslik to'g'risida qaror qilinadi, jazo sifatida talabani talabalar safidan chetlashtirishgacha bo'lgan choralar ko'riladi.

6-bob. Ta'qiqlangan harakatlar

- GSI tomonidan yaratilgan kontentni o'zining original ishi sifatida taqdim etish;
- Imtihonlarda GSI dan foydalanish
- baholash jarayonida GSI dan yashirin foydalanish;
- GSI foydalanilganligini yashirish;
- GSI dan mantiqni tushunmasdan faqat natija olish maqsadida foydalanish;
- o'qilmagan manbalardan GSI yordamida iqtibos keltirish;
- argumentlar va xulosalarni GSI ga ishonib qoldirish.

7-bob. Professor-o'qituvchining majburiyatlari

7.1. Ko'rsatma: O'qituvchi har bir topshiriq uchun GSI'dan foydalanish darajasini (Yashil, Sariq, Qizil) o'quv dasturida (Syllabus) oldindan belgilab berishi shart.

O'qituvchi har bir topshiriq uchun GSI'dan foydalanish darajasini (Yashil, Sariq, Qizil) oldindan e'lon qilishi shart.

7.2. Verifikatsiya usullari: O'qituvchi faqat avtomatlashtirilgan detektorlarga (AI detectors) tayanmasdan, talabning haqiqiy bilimini tekshirish uchun **Jonli suhbat** yoki **auditoriyada yozish** usullarini qo'llash huquqiga ega.

7.3. O'qituvchilar uchun tavsiya: Talabalarga berilgan topshiriq bahosining 50 foizini yakuniy matnga qarab, qolgan 50 foizini esa shu matn ustida ishlash jarayoni (dastlabki qoralama, GSI bilan muloqot loglari, tahrirlar tarixi)ga qo'yilishi tavsiya etiladi. Yoki bo'lmasa topshiriqning 50 foizi qismi AI bilan, qolgan 50 foizi qismi esa Alsiz (faqat auditoriyada) bajarilishini nazoratga olish maqsadga muvofiq.

YAKUNIY QOIDALAR

1. Ushbu qoidalar universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

2. Qoidalarga o'zgartirishlar universitetning tegishli idoralari tomonidan kiritiladi.

3. GSI texnologiyalari rivojlanishi bilan qoidalar muntazam qayta ko'rib chiqiladi.

4. Talabalar va xodimlar qoidalar bilan tanishganliklarini yozma ravishda tasdiqlaydilar.